

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI
(MUTAXASSISLIKKA OID MAXSUS ADABIYOT TAHLILI)
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San`at va gumanitar fanlar
Ta`lim sohasi: 220000– Gumanitar fanlar
Mutaxassislik: 70220303 – Tarixshunoslik, manbashunoslik
va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo
mamlakatlari bo'yicha)

Toshkent – 2022

THE UNIVERSITY OF THE STATE OF NEW YORK
THE STATE EDUCATION DEPARTMENT
OFFICE OF GENERAL SERVICES



THE UNIVERSITY OF THE STATE OF NEW YORK
THE STATE EDUCATION DEPARTMENT
OFFICE OF GENERAL SERVICES

STATE OF NEW YORK
OFFICE OF GENERAL SERVICES
STATE OF NEW YORK
OFFICE OF GENERAL SERVICES

W. J. ...
2

[Signature]
[Signature]

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | | ECTS — Kreditlar | |
|----------------|--|--|------------------------|---------------------|------------------|--|
| TSHNM 11-310 | | 2022-2023 | 1,2,3 | | 4,4,2 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi soatlari: | | |
| Asosiy | | O'zbek | | 4,4,2 | | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | | |
| | | Mutaxassislikning nazariy masalalari (Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili) | 120 | 180 | 300 | |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Tarixni o'rganishning bosh maqsadi uzoq va yaqin o'tmish voqea-hodisalarini maksimal darajada obyektiv yoritishga qaratilmog'i lozim. Bu muhim masala tarix fanining nazariy masalalariga to'g'ri yondoshishni talab qiladi. Zero, tarixni talqin qilishda uning ijtimoiy xossasidan kelib chiquvchi bir qator muammolar bor. Insoniyatning o'tmishi uni o'rganuvchidan mutlaqo holi, o'z tabiatiga ko'ra obyektivlikdir. Biroq, tarixchi yoki, umuman tarix bilan qiziquvchi uni mashg'ul qilgan tarixiy voqelikni muayyan maqsad yoki ma'lum manfaat jihatdan bilmoqchi bo'ladi. Agar tarix bilimiga jamiyatning biror qatlami yoki davlat siyosati manfaatlari asosida yondoshil'sa, unda yaratilgan tarix obyektivlikdan yiroqlashadi.</p> <p>Tarixni bilishga bo'lgan turli munosabatlar tarix falsafasi singari butun bir muhim yo'nalishga aylangan. O'tmishda ko'plab mutafakkirlar bu masala ustida bosh qotirganlar. Ammo tarixni bekorlik bilan mukammal obyektiv yoritish va uni bilish masalasi hal qilinmagan deyish qiyin. Bu yo'lda tarixni anglashning ko'plab bosqichlari ortda qolgan. O'tmish haqida ongli xotira, undagi faktlarning sifat va miqdor o'zgarishlari bilan takrorlanish xususiyati ma'lum bo'la boshlagach, voqea-hodisalar o'rtasida qandaydir bog'lab turuvchi aloqadorlik, ilmiy tilda aytganda, qonuniyat borligi haqidagi tuyg'uga sabab bo'lgan. Shundan kelib chiqib, qadimgi inson o'z hayoti voqealarini ular bilan bog'liq ashyolarni asrash, keyinroq voqeaga tegishli narsalarni dov-daraxt tanasida, qoya toshlarda tasvirlash orqali xotirada asrashgina emas, balki beixtiyor o'zidan keyingi avlodlarga ham yetkazish sari qadam qo'ygan.</p> <p>Ibtidoiy davrlardan boshlab odamzod yaratgan moddiy ashyoviy dunyo tarixning guvohligi sifatida "soqov" ekanidan kelib chiqib, manbashunoslikning million yillarni qamrab olgan yodgorliklari ni tarixiy talqin qilish o'ta mas'uliyatli va qaltis muammolardan biridir. Ko'p hollarda</p> | | | | | |

qadimgi inson foydalangan u yoki bu buyumning haqiqiy vazifasini aniqlash qiyin. Shu bois ekperimental arxeologiyadek maxsus fan sohasi ham amal qilib kelmoqda. Biroq tarixiy bilimlarning nisbiyligi, ba'zan hatto, noqisligi oldida tadqiqotchilar ojiz bo'lib qolishadi. Shuni hisobga olganda tarixiy bilimning doimiy ortib borishi, erishilgan bilimlarning yangi faktlar asosida taftish qilib turilishi, masala bo'yicha ilmiy tajriba va ma'lumotlarni tahlil etib borish tadqiqotlar strategiyasini belgilash uchun xizmat qiladi. Tarix fanining bu sohasini tarixshunoslik deb ataladi. Bu muhim soha ish usullarisiz biror tadqiqot muammosini hal etish mumkin emas. Chunki har qanday tarixiy muammo birinchi galda uning o'rganilgan darajasi va tadqiqotchi belgilagan masala yuzasidan hal qilinishi lozim jihatlarini aniqlashdan boshlanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I. Kirish. Fanning nazariy-metodologik asoslari.

Tarixni o'rganishning bosh maqsadi uzoq va yaqin o'tmish voqea-hodisalarini maksimal darajada ob'ektiv yoritishga qaratilmog'i lozim. Bu muhim masala tarix fanining nazariy masalalariga to'g'ri yondoshishni talab qiladi. Zero, tarixni talqin qilishda uning ijtimoiy xossasidan kelib chiquvchi bir qator muammolar bor. Insoniyatning o'tmishi uni o'rganuvchidan mutlaqo holi, o'z tabiatiga ko'ra ob'ektivlikdir. Biroq, tarixchi yoki, umuman tarix bilan qiziquvchi uni mashg'ul qilgan tarixiy voqelikni muayyan maqsad yoki ma'lum manfaat jihatdan bilmoqchi bo'ladi. Agar tarix bilimiga jamiyatning biror qatlami yoki davlat siyosati manfaatlari asosida yondoshilsa, unda yaratilgan tarix ob'ektivlikdan yiroqlashadi. Lekin chin ma'noda demokratiya yo'lini tanlagan jamiyat o'z o'tmishi saboqlaridan ratsional foydalangan holda kelajakni oqilona tashkil etishga intiladi.

2. Fanning maqsadi va vazifalari.

- MOXT qadimiy davrlari manbalari: moddiy va ilk davr yozma manbalarini o'rganish, ularning ilmiy talqinlari bilan bog'liq muammolarni bilish va ularni hal qilish yo'llarini belgilashga o'rgatish;
- Antik davr yunon-rim manbalari majmuidan mintaqa tarixiy jarayonlarga tegishli qatlamini ajrata bilish, o'sha davr yodgorliklariga fanda ilgari ma'lum munosabatlarni tanqidiy baxolashmalakasini hosil qilish;
- Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yozuv tizimlari haqida ma'lumotlar berish. Parfiyoniy, xorazmiy, sug'diy, qadimgi turkiy, uyg'ur turkiysi, bixtariy yozuvlari yodgorliklarini o'rganish bilan bog'liq muammolar haqida tasavvur hosil qitlsh;
- Qadimiyat va ilk o'rta asrlar tarixiga oid numizmatik materiallar bilan ishlash ko'nikmalarini xosil qilish;

- O'rta asr tarixiy manbalarini o'rganish bilan bog'liq muammolarni taxlil qilish;

- Arabiyzabon yozma yodgorliklarning manbashunoslik asoslari;

- Forsiyzabon yodgorliklarning tarixiy talqinlari bilan bog'liq istoriografiya masalalari;

- Tarixda buyuk shaxslar va bu masaladagi qarashlar tarixshunosligidan etarli ma'lumotlar hosil qilish;

- Davlatchilik tarixi muammolarining o'rganilishi tarixi bo'yichabilim va ko'nikmalarga ega qilish;

- MOX madaniyat tarixi tarixshunosligi bo'yicha bilim berish va ilmiy tanqidiy munosabat bildirish ko'nikmalarini yaratish;

- MO toponimlarining tarixiy va lingvistik tasnifi malakasini hosil qilish;

- Etnik tarix manbashunosligi va tarixshunosligi bo'yicha bilim va tahlil ko'nikmalarini hosil qilish;

- Temuriylar davri manbalarining o'rganilish holati haqida eng yangi adabiyot bilan ishlash malakasini paydo qilish;

- So'nggi o'rta asrlar (xonliklar) davri tarixining o'rganilish holatini va bu sohadagi navbatdagi vazifalarni aniq tasavvur qilishga o'rgatish;

- XIX asr so'nggi choragi – XX asr boshlaridagi Turkiston mustamlaka tizimi hujjatlari (arxiv fondlarini o'rganish muammolari);

- XX –XXI asr murakkab tarixiy jarayonlarida MO mintaqasining o'rni masalasida aniq pozitsiyaga ega bo'lish malakasini shakllantirish.

3. MO da ibtidoiy davrlar tarixining nazariy muammolari. Mintaqaning antropogenligi masalasida fikrlar turli-tumanligi.

Ibtidoiy davr tarixini o'rganishda erishilgan so'nggi yutuqlarni sharxlash. MOda Ibtidoiy davrning an'anaviy xronologiyasi haqida tasavvurlarning o'zgarishi va buning ilmiy-nazariy asoslanishi: mustye va yuqori paleolit davrlari orasida o'tish bosqichi va hozirgi odam tipi kromanyonning paydo bo'lish jarayoni haqida yangi ilmiy farazlar, bahs va munozaralarning xulosalari. Ibtidoiy davr "madaniyati" tushunchasining ilmiy izohi. Insoniyat tarixining ilmiy va diniy talqinlari. Ilmiy qarashning mantiqiy butunligi.

4. Tosh asri MO tarixi manbalari talqini va davrlashtirilishi haqidagi yangi qarashlar.

Tosh asri tushunchasining shartliligi. Tosh asri inson faoliyatining iqtisodiy zamini, ma'naviy hayot sari ilk qadamlar. Tosh asri yodgorliklarining tarixiy talqini masalalari. Tosh "industriyasi", toshga ishlov berish texnologiyasi. Yodgorliklarning u yoki bu "madaniyat"larga ajratish prinsiplari. Tosh asri yodgorliklari uchun etalon masalasi va uning fan amaliyotidagi o'rni. Tosh asri "madaniyat"lari tushunchasining nazariy va ilmiy-amaliy asoslari.

5. Arxeologiya va tarix. Arxeologik materiallar funksional talqinining nazariy va amaliy masalalari: eksperimental arxeologiya.

Arxeologiyaning tarix fanining yordamchi sohasi darajasidan rivojlanib, o'zining ish metodikasi, moddiy yodgorliklarning talqini bilan bog'liq yondoshuv tamoyillariga ko'ra mustaqil fan sohasiga aylanishi.

Yodgorliklarning funksional tahlili va talqini masalalari. Eksperimental arxeologiya maktablari va ularning muvaffaqiyatlari. **A.A.Semenov** eksperimental maktabi va unda o'zbek olimlarining o'rni.

6. Markaziy Osiyo xalqlari ibtidoiy xo'jalik faoliyati yo'nalishlari: nomadizm va o'troq madaniyatlar muvozanati–mintaqa xalqlari tarixining muhim omili.

Markaziy Osiyo mintaqasi azaliy ichki daryolar havzalari va cho'l va sahro hamda vodiy va vohalardan iborat bo'lgani sababli ko'chmanchi chorva xo'jaligi bilan bir qatorda o'troq dehqonchilik hamda bog'dorchilik sohalarining o'zaro faol munosabatlari zaminida rivojlanib kelgan. Har ikki xo'jalik tipi zaminida shakllanib, rivoj topib kelgan hunarmandchilik sohasi bronza davriga kelib, mustaqil ishlab chiqarish sohasiga aylangan. MOda nomad va o'troq madaniyatlarining bir-birini aataqozo etuvchi asoslarda rivojlanish xususiyati.

7. Eneolit va bronza davrlari o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari – MO tarixining sivilizatsion mohiyatini shakllantiruvchi omil

Markaziy Osiyoda eneolit va bronza davrlarining o'ziga xos xususiyatlari va umumsivilizatsion mohiyati. Bu davrlarni o'rganishning asosiy arxeologik manbalari(Anau, Oltindepe, Namozgoh, Sopolli, Dashli va b.). MOning Qadimgi sharq sivilizatsiya o'choqlari qatoridagi o'rni. O'troq va ko'chmanchi chorvador bronza madaniyatlarining o'zaro munosabatlari. Bronza davrida etnomadaniy munosabatlr. Prototurk sivilizatsiyasining hududiy miqyoslari va uning birlamchi mohiyati. Oriylar migratsiyasining MO sivilizatsiyasida ikkilamchi hodisa ekanligi. Turkiy va eroniyzabon xalqlar madaniy simbiozining tarixiy ildizlari. MOda bronza davri sivilizatsiyasining xo'jalik-iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy asoslari.

8. MOda protoshahar, shaharsozlik va shaharchilik madaniyatining genezisi masalasining nazariy asoslari

Markaziy Osiyoda protoshahar va ilk davlatchilik jarayonlari. Markaziy Osiyo ilk sivilizatsiyasi kulturogenezi masalasining fandagi holati. Protoshahar markazlarining paydo bo'lishi. MO vodiy va vohalarining o'zlashtirilishida kichik va katta vohalar ko'lamidagi madaniy o'choqlar va ularning ma'muriy birliklarga aylana borishi. Qadimiy davlatchilikning mahalliy ma'muriy tuzilmalartamoyilining tarixiy ildizlari. Bunda tabiiy geografik ajratuvchi hamda ijtimoiy birlashtiruvchi omillarning muvozanati masalasi.

Ilk shaharsozlik tamoyillari. Shaharga xos asosiy belgilar. Arxitektura elementlarining takomil yo'llari. Shaharchilik madaniyatining shakllana borishi. Shahar va hunarmandchilikning mustaqil ishlab chiqaroish sohasiga aylanishi. Shahar – savdo-almashuv markazi. Shahar – madaniy va ma'naviy markaz. Shahar – ma'muriy markaz.

9. MOda davlatchilik tarixining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari: o'zbek davlatchiligi tarixining uzluksizligi va davomiyligi

Markaziy Osiyoda davlatchilik tarixi taraqqiyotining murakkab yo'llari. Davlatchilikning ijtimoiy asoslari. Jamiyat va uni boshqarish bilan bog'liq

zaruriyat davlatning tashkil topishida bosh omil sifatida. Jamiyat tarkibidagi funksional o'zgarishlar. Tabaqalanish. Moddiy ishlab chiqarish, mehnat taqsimoti, mahsulot va uning taqsimoti o'rtasidagi munosabat. Xo'jalik ukladlari va davlat tuzilmalarining xususiyatlari. O'troq davlatchilik va nomadik efemer davlatchilik masalasining o'rganilish holati. Markaziy Osiyoda o'zbek davlatchiligi haqidagi nazariy masalaning tushunilishidagi ixtiloflar. Bugungi o'zbek davlati prototurkiy sivilizatsion davrlardan boshlab uzluksiz vorisiylikning yorqin namunasi sifatida.

10. Tarix fanida tarixiylik tamoyili, uning xususiy va umumiy qonuniyatlari (MOXT misolida)

Tarix o'tmishning obyektiv mevasi. Biroq uni tushunish va tushuntirishda qarashlar, maqsadlar turli-tumanligi sababli tarix fan sifatida jabrlanuvchi bo'lib qolmoqda. Natijada haqqoniy tarixni uning egasi – xalqqa yetkazish qiyin kechmoqda. Bu masalada tarixiylik prinsipi muhim va hal qiluvchi rol o'ynamog'i lozim. Zero, tarixni ma'lum maqsad bilan buzib ko'rsatish, bugungi tasavvurdan kelib chiqib, tarixga nisbatan nigilistik xulosalar chiqarish. Xavfli xatolarga olib keladi. Tarixiylikning xususiy omillari, bu mahalliy sharoitlarda tarixiy jarayonlarning kechuviga xos holatlar bulsa, ayni shu tarixiy faktlarning umumbashariy tarixiy jarayonlardagi o'rnini belgilash, ulning tarixiy qonuniyat ko'lamidagi bahosini chiqarish muhim ekanligi.

11. MOXT tadqiqotlarida subyektiv va obyektiv qarashlar o'rtasidagi ziddiyat – fan taraqqiyotining omili sifatida

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mushtarak xususiyatlarni ayrim olingan xalqlarning xususiy tarixiga xos qilib ko'rsatish yo'liga kirib bordi. Nihoyat, mustaqillik davridan boshlab, postsovet mintaqa xalqlari tarixini sovetcha va kommunistik mafkuradan tozalash, haqqoniy tarixni yaratish kabi talablar asosida qayta "ko'rib chiqish"ga kirishildi. Bu jarayon, tarixga milliy shovinistik ruhni olib kirish darajasiga yetgan hollar ham kuzatildi. Butun bir xalqning tarixini yo'qqa chiqarish, bir xalqning ikkinchisidan ustun, qadimiy, madaniy jihatdan ilg'or qilib ko'rsatish, tubjoy xalqi ekanini isbotlash, boshqalarga nisbatan kelgindi, xatto bosqinchi kabi "tamg'alar"ni bosishga urinish va boshqalar. Fandagi bu kabi sun'iy munosabatlar ilmiy haqiqatning yuzaga chiqishini qiyinlashtirish bilan barobar ommaning tarixiy tasavvurini buzishga, milliy shovinizm tuyg'ulariga olib keladi. Tarixning obyektiv qonuniyatlari bor va bu yo'ldan toymaslik muhim.

12. MOX tarixini o'rganishda g'oyaviy-metodologik asoslar va manfaatlar qutblari ziddiyatining salbiy oqibatlari.

Tarixiy jarayonning tabiiy obyektiv mohiyati. Tarixni o'rganishning obyektivligi talabidan turli og'ishlar va ularning sabablari. Tarixga mafkuraviy, siyosiy, diniy, milliy mental va boshqa talablar orqali yondoshuv va bularning oqibatlari. Tarix manfaatlar qutblari kurashining qurboni bo'lmasligi lozim. Tarix manbalar, ularning xolisona talqinidan kelib chiquvchi xulosalar bilan ish ko'rishi hal qiluvchi tamoyildir. Tarixga nisbatan

har qanday subyektiv talab, xoh u mafkuraviy, xoh siyosiy va b. bo'lsin, bu fanning haqqoniy maqsadiga ziddir.

13. Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy mintaqasi birligining nazariy ilmiy asoslari.

Markaziy Osiyo mintaqasi Ichki Osiyo (Inner Asia) deb ataluvchi ulkan hududiy birlik bo'lib, bu makonda ibtidoiy davrlardan boshlab mushtarak tarixiy jarayonlar kechib kelgan. Hududiy yagonalikning bifsferik mohiyatini bu mintaqadagi daryolarning ichki daryolar ekani, ya'ni o'z suvlarini hudud ichidagi xo'jalik zonalarida to'liq sarflashi belgilagan. Suv muammosi dasht va cho'l mintaqalarining nomadik chorva xo'jalik xususiyatini belgilagan. Katta va kichik daryolar vodiylarida ibtidoiy qayir dehqonchiligidan boshlab rivojlangan o'troq madaniyat o'choqlarigacha rivojlanish davom etgan. Har ikkala xo'jalik ukladi o'rtasida bir-birini taqozo etuvchi bog'liqlik davom etgan. Ko'chmanchi chorva mintaqalarining sivilizatsion jarayonlardagi ishtiroki masalasi ham muhim tadqiqotlar uchun obyekt bo'lib kelgan. Zero, cho'l miintaqalarida, ayniqsa bronza va temir davri madaniy jarayonlarida, metalga ishloq berish texnologiyasining rivoji bilan ajralib turgan. Muhimi shuki, Markaziy Osiyo mintaqasining barcha qismlari qadimdan o'zaro intensiv munosabatlarda yashab kelgan. Bu mintqa o'zining tarixiy sivilizatsion mohiyati bilan Xitoy, Hindiston, Eron sisivilizatsion jarayonlari bilan raqobatda turish bilan barobar, ularning ilg'or jihatlarini transformatsion asoslarda o'zlashtirib ham borgan. Shu bilan birga taraqqiyotning muayyan bosqichlarida mushtarak ildizlardan milliy madaniy tarmoqlar ham ajralib chiqaborgan. Mil.avv. II ming yillik o'rtalaridan boshlangan oriylarmigratsiyasi Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy-madaniy va etnik munosabatlarga yangi to'lqin bo'lib kirib keldi. Bu mintaqada prototurkiy olamga eroniyzabon til oqimi kirib keldi. Mintaqada o'troqlashgan oiri qavmlari bilan prototurkiy aholi o'rtasida keyinchalik ikki tillilikning shakllanishiga ilk sharoit yuzaga keldi. MOning sharqiy mintaqalarida Oltoy doirasidagi qarindosh tillar oilasi bilan bir qatorda sak, toxri kabi migratsion qavmlar tillari ham amal qila boshladi. Bu jarayon mana uch ming yildirki, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy-madaniy birlinainining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lib kelmoqda.

14. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi – mintqa tarixiy madaniy ildizlari mushtarakligining guvohligi sifatida.

Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi tushunchasi keng qamrovli muammolarga ishorat qiladi. Avvalo, bu masala MO mintaqasida yashab kelayotgan xalqlarning mushtarak taqdirlari, bosib o'tgan tarixiy yo'llarining umumiyligi, hayot tarzlarining o'zaro yaqinligi, madaniy, ma'naviy dunyolarining mushtarakligi kabi masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Uzoq o'tmish davrlardan boshlab MO mintaqasi xalqlarini birini biridan ajratuvchi chegaralari bo'lmagan. Manfaatlar uyg'unligi nomadik mintaqalar xalqlarining ehtiyojlarini o'troq madaniyat mintaqalari bilan bog'lab turgan.

Va aksincha, o'troq madaniyat mintaqalari xalqlari nomad mintaqalar mahsulotlariga ehtiyojmand bo'lishgan. Shu ma'noda MO tarixiy geografiyasi yo'nalishidagi tadqiqotlarga ehtiyoj va zaruriyat tobora kuchayib bormoqda. Tadqiqotlarning dolzarbligi shundaki, keyingi paytlarda yuzaga kelgan global munosabatlar, xususan, MO mintaqasidagi siyosiy, ijtimoiy munosabatlar tarixiy ildizlarga qayta nazar tashlashni taqozo qilmoqda. Mintaqa birligi g'oyasiga qaytish bugungi "chegarabozlik", sen-menchiliklarga hech qanday tarixiy asos yo'qligini ko'rsatishga xizmat qilgan bo'lar edi. Bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi tashq siyosatidagi yangi shabboda katta ijobiy siljishga xizmat qilayotgani muhimdir. Xulosa qilib aytganda, tarixiy geografiya tarix fanining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum tarixiy madaniy hududning manzillari-makonlarini, ularning joylashuv o'rinlarini, geografik tabiiy va antropogen o'zgarishlarini, etnik, siyosiy hamda madaniy hayot chegaralarini, iqtisodiy mintaqalarini o'rganishga qaratilgan. Tarixiy geografiya fanining bosh muammosi – qadimiy va o'rta asrlarga oid geografik ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish, ya'ni bo'lib o'tgan aniq joyi bilan bog'lash, shu bilan birga voqelar tafsilotida muayyan makonning o'ynagan rolini ko'rsatish, aholi manzillari shakllanishi va taraqqiyoti dinamikasini o'rganish, u yoki bu joyning hayotiy zarur hosila salohiyatlarini tadqiq etish va boshqalar.

15. Markaziy Osiyo tarixiy onomastikasining manbaviy ahamiyati: ismlar dunyosi, xususan, toponimlar – ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, madaniy va ma'naviy jarayonlarning guvohlari.

Atoqli otlar tarixning muhim guvohlaridir. Bular kishi ismlarimi, laqablarmi, turli obyektlarning nomlarimi, joy nomlarimi – barchasi jamiyat hayotining ayrim olingan, ya'ni turdosh nomlardan farqli ravishda muayyan aniq voqe'lik bilan bog'liq hodisani bildiradi. Shu xususiyati bilan onomastik material lingvistik xususiyatidan tashqari tarixiy manba vazifasini ham o'taydi. Bu masalani tarixiy toponimiya misolida yaqqol kuzatish mumkin.

Ibtidodan to hanuzgacha insoniyat tarixi jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar tarzida makon va manzil orqali joy nomlarida – toponimiyada aks etadi. Toponimlar o'tmishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarini o'ziga singdirgan noyob tarixiy manbadir. Boshqacha aytganda, har bir toponim – ixcham bir tarix. Chunki toponimlar amal qilgan davrining bevosita guvohidir. Toponimiya, avvalo, joy nomlarini ifodalovchi so'z birliklari bilan ish ko'rgani sababli filologlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Biroq, toponimik materialni tarixiy, xususan, tarixiy manbashunoslik uchun tadqiqot obyekti sifatida qarash e'tibordan chetda qolgan. Bu kabi tadqiqotning dolzarbligi va zarurligiga shubha yo'q. Toponimlar vaqt, makon va zamon ichra amal qilgan xolda turli o'zgarishlarni, transformatsion jarayonlarni ham aks ettirishlari sababli ularga ilmiy manbashunoslik munosabatini shakllantira borish kechiktirib bo'lmas dolzarb masaladir.

16. MOXTning manbashunosligi: qadimiyat va o'rta asrlar: yozuv madaniyati, yozuvlar va tillar, manbalar bilan ishlash malakasini shakllantirish muammolari

Markaziy Osiyo tarixining yozma yodgorliklari manbashunosligi mintaqada tarixiy manbalarning yozuvlari xilma-xilligi va davriy chegaralarining chalkashligi tufayli g'oyat murakkab sohadir. Avvalo, qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo qadimiy yozuv madaniyati markazlaridan biridir. Bu mintaqada xalqlari avtohton yozuv yaratish yo'lida ma'lum tajribaga ega bo'lganlari holda, mil. avv. Iming yillik o'rtalaridan boshlab oramiy alifbe tizimi asosida mahalliy tillarga moslashtirilgan bir qancha alifbelar yaratganlar va o'z tajribalarini sharq mamlakatlarida yoyilishiga xizmat qilganlar. Natijada mahalliy yozuvlar manbashunosligiga asos solingan. Parfiyoniy, xorazmiy, sug'diy, bohtariy, turkiy, braxmi, kxaroshtxi, suryoniy, moniyviy, xitoy, arab va b. Yozuvlar bilan yozilgan manbalar bilan shug'ullanish yuksak kasbiy malakani talab etadi.

Manbalar bilan ishlash texnologiyasi, paleografik tadqiqot, matnshunoslik, manbashunoslik sohalarining yagona bir-birini taqozo etuvchi xususiyati. Manbalarning tarixiy faktga munosabati, muallifning pozitsiyasi, manbaning tili va yozuvi mamsalari.

17. Markaziy Osiyo xalqlari tarixining falsafiy talqini masalalari: tarixni falsafiy bilish muammolari

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini falsafiy talqin qilish masalalari asos te'tibori bilan mintaqada o'tmishining mushtarakligiga tayanadi. Jamiyat hayoti ijtimoiy tarixiy jarayonlarni ilmiy o'rganishning asosiy ob'ektidir. Insoniyat tomonidan sodir qilingan barcha voqea-hodisalar umumiy va xos ichki qonuniyatlari bilan, ularning tashqi omillari bilan birga inson va uning jahon miqyosidagi tarixini tashkil qiladi. Zero, insoniyat o'z tarixini o'zi yaratadi. Demak, nafaqat tarixning mualliflari, balki ular tarixning ijrochilari hamdir. Ammo insoniyat yaratgan tarixini bilish masalasi hech qachon yagona nuqtayi nazarda to'plana olmaydi. Bu ma'noda tarixning ob'ektiv baholanishish u yoki bu mafkuraviy talab asosida mutlaq xolisona yoritilishi masalasi murakkabligicha qolaveradi. Shunga qaramay xolisona tarixini yaratish, salbiy va ijobiy tendentsiyalarni xaqqoniy yoritish, voqea-hodisalarni ularga tegishli manbalar asosida xalol yoritish, salbiy gaplardan qochmaslik, turli vaziyatlarga manba asosida to'g'ri baho berish muhimdir.

Tarixiy ijtimoiy jarayonlarning bosh omili insonning jamiyat, tabiat, iqtisodiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, huquqiy munosabatlar, ma'naviy me'yorlar kabilardagi o'rni ko'rsatish, inson va u mansub bo'lgan jamiyat tarixi umumbashariy tarixning bir qismi ekanini yetkazish, inson ijtimoiy xossasining yig'indisi tarixning ijtimoiylikini belgilashini, inson va uning jamiyati asrlar osha ma'naviy takomil bosqichlarida uzluksiz rivojlanib kelganini sivilizatsion asosda tushuntirish, mavzu o'quv maqsadi va vazifalarini tashkil etadi. Bundan tashqari dars davomida MOXTning moddiy va yozma tarzda yetib kelgan eng muhim yodgorliklarini yuqorida keltirilgan aspektlarda talqin etish ko'zda tutiladi.

18. Tarixiy bilimning ijtimoiyligi, tabiat va jamiyat munosabatlarida inson omili

Talabalarga tarixiy bilimning xossasini, uning ijtimoiy hayot bosqichlari tizimi ekanligini, tarixiy jarayonning uzluksizligi va umumiy qonuniyatlarini, tarixni o'rganishda inson shaxsi va uning ijtimoiy mavqei masalasini, tadqiqot va ta'lim jarayonida tarixdan kutilajak ijtimoiy manfaatlar chegarasini tushuntirish, bu bilimlardan foydalanish malakasi va ko'nikmasini hosil qilish darsning asosiy maqsadidir.

Inson va insoniyatsiz uning tarixi ham yo'q. Zero, faqat inson ongli ravishda o'z o'tmishi tarixini idrok etishga, ijobiy va salbiy oqibatlarni tajriba sifatida talqin qilishga, ham ulardan foydalanishga qodir. Inson va tabiat munosabatlari tarqiyot yuqorilagan sari tabiat zarariga bo'lib borishi jamiyatda tabiatni asrashga, uning resurslariga ehtiyotlik zarurligi kabi g'oyalarni paydo qiladi. Biroq insoniyatning tabiatga nisbatan beshafqatligi uning o'z hayotiga zarar keltirishi, bu esa progress va regress hodisalari muvozanatining buzilishiga olib keladi. Inson omili tabiat va jamiyat munosabatlarining eng muhim omilidir. Shu masalaning ratsional hal bo'lishi taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. Vayronkorlikni inkor etish, bunyodkorlik yo'lidan borish insoniyatning omonligi kafolatidir.

19. MOXTda etnik va etno-madaniy munosabatlar tarixining nazariy muammolari: mintaqada madaniy-tarixiy mushtaraklik masalasi.

Markaziy Osiyo hududida kechgan tarixiy jarayonlar uzoq o'tmishdan boshlab polietnik xususiyat bilan birga tarixiy mushtaraklik xususiyati uyg'unligi asosida davom etib kelgan. Bunga sabab mintaqadagi ijtimoiy hayot tabiiy shart-sharoitlarning umumiyliigi bilan bog'liq bo'lgan. Avvalo umumprototurkiylik dominantligi sharoitida, keyinchalik oriylar migratsiyasi oqibatida xindu-oriy, eroniy tillari kirib kelishi munosabati bilan eroniy va turkiy bilingvistik til vaziyati va madaniy simbioz jarayonlari mushtarak madaniy tarixiy jarayonlarga asos soldi.

20. MOda diniy munosabatlar tarixining metodologik masalalari.

Insoniyatning o'z tarixiga eng qadimgi munosabati odamzodning tabiatdan o'zini ajratib qarash darajasidagi tafakkuriy bosqichdan boshlanadi. Ma'lumki, MO xalqlari qadimda ibtidoiy diniy qarashlardan tortib, jahon dinlari doirasigacha diniy tafakkur yo'llarini bosib o'tishgan. Bu masalalarni o'rganishda metodologik yondoshuv masalasi o'ta nozik muammo hisoblanadi. Chunki tarixda din omilining o'rni nihoyatda katta va murakkab shakllarda davom etgan. Mesopotamiya va Misr hududlarida paydo bo'lgan sivilizatsiya o'choqlari, Hindiston, Qadimgi Markaziy Osiyo mintaqalarida din omilining o'rnini tushuntirishda avvalo ilmiy metodologik zaminga tayanishi muhim. San'at va adabiyot o'tmish xotirasi va o'zi yaratilgan zamonda voqealar va voqeliklarning kechuvini aks ettiradi. Biroq san'at va adabiyot hodisalari ham tarixdan tashqarida emas. Ular kelajakka o'tmish va kechmishlar misolida jar soldadilar. San'at va adabiyot aksariyat hollarda diniy g'oyalar bilan o'ralgan holda keladi. Lekin bu vosita ularning omma ongi bilan uyg'unlikdagina samara beradi. Zero, dinsizlik jamiyatining ham tajribalaridan tarix xabardor. Shu sababli ularda aks etadigan voqea-hodisalar

ma'lum badiiylashgan va ruhoniyluk tusi berilgan shaklda tarixiy jarayonning in'ikosidir. Lekin o'tmishda chindan ham bo'lib o'tgan yoki o'ylab topilgan voqe'likning modeli ko'rinishida san'at va adabiyotda aks etib, tarixning ibratli xulosalari roviy shakllarda ifoda topadi. Tarix haqidagi roviy gaplar muayyan ijtimoiy qatlamning, jamoaga xos psixologiyasini aks ettiradi. Rivoyatda esa tarixiy haqiqatning izlarini ko'ra bilish muhimdir.

21. MOX tarixnavisligida janrlar tipologiyasi va manbalar talqini masalalar.

Tarix yozishning turli usullari, voqealarga yondoshuv tamoyillari tultumanligi tarixiy asarlarning janrlari paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu ma'noda umumiy tarix, xususiy tarix, personaliy, sulolaviy tarix, roviy va haqqoniy tarix o'rtasidagi muvozanat masalalari bu mavzuning predmeti, obyektini hamda maqsad va vazifalarini belgilaydi.

22. MOXTning formatsion va sivilizatsion talqinlari: tarixiy jarayon dinamikasining tabiiy ijtimoiy mohiyati.

Tarix tadqiqotlarining uch asosiy yo'nalishi mavjud. 1-yo'nalish jamiyatning taraqqiyotini moddiy tabiiy tarixiy jarayon sifatida talqin qilishdan iborat bo'lib, bu jarayon qonuniy hamda odamlarning irodasi va ongi bilan aloqasi yo'q holda davom etadi, deb hisoblashdan iborat. 2-yo'nalish esa tarixiy jarayonni odamlar faoliyatining natijasi sifatida talqin qilishdir. Birinchi yo'nalishda odamlarning faoliyati tabiiy jarayonlar ichiga singib ketgandek bo'lsa, ikkinchi o'ynalishda tarixiy jarayon obyektini bilan uning ijrochisi – odamlar faoliyatini, tarixiy ijodini tahlil qilayotgan bo'lamiz. Har ikki yo'nalishning mohiyatini, ularning natijalarini birlashtirsak, tarixga moddiyun-materialistik qarashga yondashib kelgan bo'lamiz.

Tarix tadqiqotlaridagi 3-yo'nalish eng muhim yo'nalish sifatida insonni tarixning hosilasi, tarixiy jarayonlarda pishib yetilgan hosila sifatida baholashga kelib to'xtaydi.

Bu demak insonning jamiyatga tobeligi, tarix esa insoniyatning ibtidodan to hozirgacha rivojlanishi, deb tushunishdir. Shunday qilib, "inson va tarix" "tarix va inson" tarixiy jarayonlarining uchinchi o'lchami bo'lib, tarixni chuqur tushunish, uning gumanistik maqsadlarini anglash, jamiyat hayoti uchun ibratga, xatolardan xoli qiluvchi omilga aylantiradi. Ko'riladigan ushbu masalalarning ilmiy yechimini izlashda formatsion qarash o'zini oqlamadi. Zero barcha tarixiy jarayonlar mohiyatida uzluksiz sivilizatsion asos mavjudligi bugun tarix fanining bosh tamoyili, metodologik yondoshuvlarning belshg'ilovchi xususiyatiga aylandi.

23. MOXTda shaxs masalasi: "milliy tarix"lar va mintaqa tarixining mushtarak asoslari o'rtasidagi nazariy ziddiyat.

Tarixda shaxsning rolini ko'rsatishda obyektiv tarixiy nuqtayi nazaridan yondashish muhim ahamiyatga ega. Bu masalada g'oyaviy-mafkuraviy talablardan kelib chiquvchi biryozlamaliklar tarixni buzib ko'rsatishga olib keladi. Masalan, mavjud adabiyotlarda Mahmud G'aznaviyga salbiy baho berish tendensiyasi yetakchi o'ringa ko'tarilgan. Holbuki, o'z tarixiy shart-

sharoitiga ko'ra Mahmud G'aznaviy kuchli markazlashgan davlat tuzish maqsadi bilan ish ko'rgan. Bu maqsadning vositasi tinimsiz urushlar bo'lganligi zamonasining tarixiy shart-sharoiti bilan bog'liq edi. Xuddi shu maqsad bilan harakat qilgan Ioan IV (Grozniy)ning yurishlarini Rus tarixi oqlaydi. Ayni rus tarixnavisligida Amir Temur shaxsiga nisbatan bir yoqlama baho ustun bo'lib kelgan. Lekin Yevropa tarixnavisligida Amir Temurning harbiy-siyosiy faoliyatini tarixiylik asosida yoritishga qaratilgan asarlar ham yo'q emas (Xukxem va b.).

Tarixda shaxsning roli masalasi hozirgi tarix fanida passionarlik g'oyasi asosida yangicha baholanmoqda (L.Gumilev).

24. Markaziy Osiyoda qadimiyatdan o'rta asrlarga o'tishdagi madaniyatlar transformatsiyasi va yangi oriyentatsiyasi, passionar vaziyat.

Markaziy Osiyoning qadimiyati eneolit va bronza davrlaridan boshlab katta-kichik vodiy va vohalarda ilk davlatchilik va protoshahar madaniyatiga asos soldi. Ilk o'rta asrlargacha ushbu voha-vodiy siyosiy tuzilmalaridavlat tuzilmalarining asosida mavjud edi. Xatto ulkan saltanatlar paydo bo'lganida ham boshqaruvning mazkur tuzilmalarini hisobga olib ish ko'rgan. Biroq ilk o'rta asrlardan boshlab mazkur tizim o'rnini ulkan saltanatlar egallay boshladi. Ayniqsa, islom dini tarqalishi va arab xalifaligi hukmronligi davridan boshlab mahalliy davlatchilikda muayyan transformatsiya ro'y bera bordi. Siyosiy davlatchilikning arab xalifaligi davridan boshlab, boshqaruvning nominal xusuiyati o'zgardi. Amirlik, sultonlik, podsholik tiplari paydo bo'ldi. Yirik markazlashgan davlatlar paydo bo'ldi. Bu davr davlatchilikning yangi oriyentatsiyasini shakllantirdi. Qadimiyatdan o'rta asrlarga o'tish jarayoni o'ziga xos passionar vaziyat natijasi deb baholanishi mumkin.

25. Sharqiy Turkiston, Tibet, Oltoy o'lkalari tarixini o'rganishning metodologik jihatlari.

Bu mintaqalar aslida Markaziy Osiyoning ajralmas qismi ekanligi. Sharqiy Turkiston va Oltoy o'lkalari qadimgi turkiy dunyoning markaziy mintaqalari bo'lgan. Bu mintaqa turkiy xalqlari keyinchalik Yevroosiyo bo'ylab turkiy xalqlarning etnogenezida muhim rol o'ynagan. Markaziy Osiyo prototurkiy xalqlari bilan eroniy tilli xalqlaning tarixiy- madaniy uyg'unlashuvi mushtarak xususiyat kasb etdi. Tibet xalqi o'rta asrlar davomida Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy, harbiy va madaniy jarayonlarda faol qatnashgan. Bu masalalarning obyektiv bahosini berish tarixiy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Markaziy osiyo xalqlari tarixiy-madaniy simbiozi masalasining nazariy asoslari.

26. Turkistonda podsholik Rossiyasi kolonial va sovetlar davri tarixini yoritishda biryoqlamalik va xolislik masalasining ziddiyatlari.

Rossiya kolonial tizimining Turkiston o'lkasida joriy etilishining tarixiy jarayon sifatidagi falsafiy obyektiv bahosini berish. Sovetlar hukmronligi davrining mohiyatini xolisona ochib berish kabi metodologik talablar ushbu mavzuning yoritilishida diqqat markazida turmog'i lozim.

27. XX asr oxiri-XXI asr boshi – Markaziy Osiyo xalqlari tarixining eng yangi davri. Masalaning nazariy ilmiy asoslari.

XX asrning ikkinchi yarmi mintaqa tarixining murakkab davri sifatida chuqur iz qoldirdi. Bir tomondan MONing ulkan qismida sovet totalitar tuzumining siyosiy ustunligini saqlashga kurash, qo'shni mintaqalarda siyosiy va harbiy ustunlikka intilish, O'rta Osiyoda sovet respublikalarining ijtimoiy siyosiy ahvoli. Turg'unlik davri. Passionar vaziyatning vujudga kelishi. Sovetcha kollektivizmning tanazzuli. Sovet davlatining inqirozi. Mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi. Tarixiy zarurat va ijtimoiy siyosiy vaziyatning keskin o'zgarishida shaxs va jamiyatning roli. Taraqqiyot yo'llari. O'zbekiston yo'li va qo'shni mintaqalarda tanlangan modellar qiyosiy tahlili. Jamiyat tarkibidagi o'zgarishlar. Yangi tashkil topgan davlatlarda siyosiy va xo'jalik faoliyatini uyushtirishda to'plangan tajriba va uning mohiyati. Taraqqiyotning yetakchi tendensiyalari. Rahbarlik stili va optimal chora-tadbirlarning ratsionalligi. Ijtimoiy ma'naviy muhitning barqarorligi uchun kurash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. MOda ibtidoiy davrlar tarixining nazariy muammolari. Mintaqaning antropogenligi masalasida fikrlar turli-tumanligi.
2. Arxeologiya va tarix. Arxeologik materiallarning funksional talqinining nazariy va amaliy masalalari
3. Markaziy Osiyo xalqlari ibtidoiy xo'jalik faoliyati yo'nalishlari: nomadizm va o'troq madaniyatlar muvozanati–mintaqa xalqlari tarixining muhim omili.
4. Eneolit va bronza davrlari o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari – MO tarixining sivilizatsion mohiyatini shakllantiruvchi omil sifatida
5. Tarixiy manba va uning talqini muammolari
6. MOda davlatchilik tarixining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari: o'zbek davlatchiligi tarixining uzluksizligi va davomiyligi.
7. Tarix fanida tarixiylik tamoyili, uning xususiy va umumiy qonuniyatlari (MOXT misolida).
8. Markaziy Osiyoda yozuv madaniyati tarixi va yozma yodgorliklar manbashunosligining nazariy va amaliy masalalari
9. Yozma yodgorliklar ustida ishlashda tarixiylik tamoyili va boshqa metodik metodologik masalalar
10. MOX tarixini o'rganishda g'oyaviy-metodologik asoslar va manfaatlar qutblari ziddiyatining salbiy oqibatlar.
11. Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy mintaqasi birligining nazariy ilmiy asoslari.

12. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi – mintaqa tarixiy madaniy ildizlari mushtarakligining guvohi sifatida.
13. Markaziy Osiyo tarixiy manbashunosligining nazariy va amaliy muammolari. Diniy manbalar bilan ishlash metodologiyasi
14. Oʻrta asrlarda oʻzbek davlatchiligi tarixi taraqqiyot dinamikasining yagona jarayon sifatidagi talqini
15. Davlatchilik va davlatlar tarixi tushunchalarining talqini masalasi.
16. Tarixiy bilimning ijtimoiyligi va tarixiy jarayonlarda inson omili
17. MOXTda etnik va etno-madaniy munosabatlar tarixining nazariy muammolari: madaniy-tarixiy mushtaraklik masalasi.
18. Yozma yodgorliklarda tarixiylik, mualliflarning voqea-hodisalarga munosabati masalalari
19. MOX tarixnavisligida janrlar tipologiyasi va manbalar talqini masalalar.
20. MOXTning formatsion va sivilizatsion talqinlari: tarixiy jarayon dinamikasining tabiiy ijtimoiy mohiyati.
21. MOXTda shaxs masalasi: “milliy tarix”lar va mintaqa tarixining mushtarak asoslari oʻrtasidagi nazariy ziddiyat.
22. Markaziy Osiyoda qadimiyatdan oʻrta asrlarga oʻtishdagi madaniyatlar transformatsiyasi, yangi madaniy, mafkuraviy oriyentatsiyaning shakllanishi va qaror topish jarayonlari, passionar vaziyatlar.

IV. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar

Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. MOda ibtidoiy davrlar tarixining nazariy muammolari. Mintaqaning antropogenligi masalasida fikrlar turli-tumanligi.
2. MOXT qadimiy davrlari manbalari: moddiy va ilk davr yozma manbalarni oʻrganish, ularning ilmiy talqinlari bilan bogʻliq muammolarni bilish, ularni hal qilish yoʻli
3. Markaziy Osiyo xalqlari ibtidoiy xoʻjalik faoliyati yoʻnalishlari: nomadizm va oʻtroq madaniyatlar muvozanati–mintaqa xalqlari tarixining muhim omili
4. MOda protoshahar, shaharsozlik va shaharchilik madaniyati genezisi masalasining nazariy asoslari
5. MOda davlatchilik tarixining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari: oʻzbek davlatchiligi tarixining uzluksizligi va davomiyligi
6. MOXT tadqiqotlarida subyektiv va obyektiv qarashlar oʻrtasidagi ziddiyat – fanning ofatimi yoki omili?
7. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi – mintaqa tarixiy madaniy ildizlari mushtarakligining guvohi sifatida

| | |
|----|--|
| | <p>8. MOXT manbashunosligi muammolari: qadimiyat va oʻrta asrlar: yozuv madaniyati, yozma yodgorliklar va ularning tillari, manbalar bilan ishlash texnologiyasi masalalari</p> <p>9. MOXTda etnik va etno-madaniy munosabatlar tarixining nazariy muammolari: madaniy-tarixiy mushtaraklik masalasi.</p> |
| 4. | <p>V. Fan oʻqitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni oʻzlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Insoniyatning falsafiy-tarixiy tafakkurining shakllanishidan boshlab murakkab takomil yoʻllarini, qadimdan to hozirgi kungacha tarixni anglash; • Tarixiy jarayonlarning falsafiy interpretatsiyasini anglash; • taraqqiyotning asosiy yoʻnalishlari va qonuniyatlarini oʻrganishga, tarix falsafasi rivojiga xizmat qilgan olimlarning turli xil qarashlarini tizimli ravishda tahlil qilish koʻnikmalarga ega boʻlishi; • tarixiy falsafiy tafakkurning turli davr va mintaqalardagi rivojlanish tendensiyalarini tushunish malakalariga ega boʻlishi kerak. |
| 5. | <p>VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • maʼruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar va b.); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish va sharxlash; • individual loyihalar; • jamoa boʻlib ishlash loyihalar ustida ishlash. |
| 6. | <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ish himoyasi.</p> |
| 7. | <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Isʼhoqov M.M. Mutaxassislikning nazariy masallari. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent: TDSHI, 2017. 2. B. Axmedov. “Tarixdan saboqlar” T, “Oʻqituvchi”, 1994. 3. Барг М.А. Эпохи и идеи. Становление историзма. М., 1987. 4. Бердияров Н.А. Смысл истории. М., 1990. <p>Qoʻshimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M. Tandiqiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017. |

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. - 56 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.–48 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
9. Blok M. Apologiya istorii ili remeslo istorika. M.: 1986.
10. Veber M. Izbrannyye proizvedeniya. M., 1990.
11. Gegel G.V.F. Filosofiya istorii. Sochineniya v 8-mi tomax. M.-L., 1932-1959.
12. Gerodot. Istoriya. L., 1972.
13. Gobbs T. Izbrannyye proizvedeniya v 2-x tomax. M.: 1964.
14. Gubman B.L. Smysl istorii. Ocherki sovremennyykh zaradnykh konsepsiy. M., 1991.
15. Kondarme J.A. Eskiz istoricheskoy kartiny progressa chelovechskoy istorii // Filosofiya istorii, Antologiya. M.: 1997-y.
16. Bjezinskiy Z. Velikaya shaxmatnaya doska, Gospodstvo Ameriki i yego geostrategicheskiye imperativy. Mejdunarod-noye otnasheniye 1995.
17. Ivin A.A. Vvedeniye v filosofiyu istorii. M.:1997.
18. Yaspers K. Smysl i naznacheniyе istorii. M.: 1991.
19. Kant I. Sochineniya v 6-tomax. M.: 1965.
20. Kramskiy A.M. Filosofiya istorii Gegelya. M.: 1988.
21. Klimovich L.I. Kniga o Korane. Yego proisxojdeniye i mifologii. M.? 22.1986.
23. Kollingvud R.Dj. Ideya istorii. Avtobiografiya. M., 980.
24. Kolominsev V.F. Metodologiya istorii. M.: 2000.
25. Danilevskiy N.. Rossiya i Yevropa. M, 1991.
26. Shpingler O.. Zakat Yevropy M., P, 1993.
27. Ruzavin G.I. Osnovy filosofii istorii. M.: 2001.
28. Xantington S. “Stolknoveniye sivilizatsiy” // M., Polis, 1994.
29. Semenov Yu.N. Sotsialnaya filosofiya A.Toynbi. M., 1980.
30. Sorokin P. Chelovek, sivilizatsiya, obshество. M.: 1992.
31. Pilye T.S. “Falsafa tarixi”. Toshkent: “Sharq”, 2002.
32. Tatsit Korneliy. Sochineniya v 2-x tomax. Lyeningrad: 1969.
33. Toynbi A. Postijeniye istorii. M.: 1991.
34. Fukiyama F. “Kones istorii” ? // Voprosy filosofii. M., 1990 № 3.
35. Farabi. Sotsialno-eticheskiye traktaty. Alma-Ata. 1973.
36. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, M.: Info – M, 1997.
37. Fukidid. Istoriya. Lyeningrad: 1991.

| | |
|----|---|
| | <p>38. Shpengler O. Zakat Yevropy. Ocherki morfologii mirovoy istorii. Tom.2. Vsemirno istoricheskiye perspektivy. V kn.: Samosoznaniye yevropeyskoy kultury. XX veka. M.: 1991.</p> <p>39. Ilalov I. "Filosofiy i Metodologiy istorii" T.: 2008.</p> <p>40. Jo'rayev N. "Tarix falsafasining nazariy asoslari" Toshkent: 2008.</p> <p>41. Filosofiya istorii. Uchebnik pod redaksiyey prof. Panarina A.A. M.: Gardarika, 2000.</p> <p>42. Carr Edvard Hallet/ What is Histry? Copyright from the publ. 1961. New York, 1961. – 209+III pages.</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>43. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.</p> <p>44. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>45. www.natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi web-sahifasi.</p> <p>46. www.berini.uz – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti web-sahifasi.</p> <p>47. www.ziyonet.uz – Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlar portali.</p> <p>48. www.edu.uz – Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi web-sahifasi.</p> <p>49. www.elsevier.com – Ilmiy tadqiqotlar va ma'lumotlar ochiq bazasi</p> <p>50. www.twirpx.com – Adabiyot va manbalar ochiq bazasi</p> <p>51. www.archive.org – Adabiyot va manbalar ochiq bazasi</p> |
| 8. | <p>O'quv dasturi "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 20__ - yil "___" _____dagi "___"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20<u>22</u> yil "<u>30</u>" <u>iyun</u>dagi "<u>11</u>" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p> |
| 9. | <p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Is'hoqov M. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasida mudiri, tarix fanlari doktori, professor</p> |
| 10 | <p>Taqrizchilar:</p> <p>R.S.Sulaymonov – tar.f.d., O'z MU professori</p> <p>H. Matyoqubov – tar.f.n. Nizomiy nomidagi TDPU tarix kafedrasida dotsenti</p> |